



**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**14-15
OKTYABR
2022**

**KOMPYUTER ILMLARI VA
MUHANDISLIK TEXNOLOGIYALARI
XALQARO ILMIY-TEXNIK KONFERENSIYA
MATERIALLARI TO'PLAMI**

2-QISM



[HTTP://JOURNAL.JBNUU.UZ/](http://journal.jbnuu.uz/)



**Google
Scholar**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON
MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**

**KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK
TEXNOLOGIYALARI**
*mavzusidagi Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman
materiallari to‘plami*
(2022-yil 14-15-oktyabr)
2-QISM

JIZZAX-2022

2. Psychological Features of Learning in The Process of Education. Zhabborova Elmira Rashidovna, Ernazarova Marhabo Norboevna. 2022/1/12 Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching

3. Абасова, С.Э. Применение новых информационных технологий в дистанционном обучении / С.Э. Абасова, С.Г. Абдуллаев // Дистанционное и виртуальное обучение. - 2011. - № 11

4. Инновационные технологии в образовании / Под ред. Абылгазиева И.И., Ильина И.В. / Сост. Земцов Д.И. - М.: МАКС Пресс, 2011. -141 с.

TARIX FANI TADQIQOTLARIDA AXBOROT TEKNOLOGIYALARNING O‘RNI XUSUSIDA

Raxmatov Xayrulla Bozorboevich, Raxmonberdiev Nabijon Jo‘raboy o‘g‘li
O‘zbekiston Milliy Universitetining Jizzax filiali, O‘zbekiston,
xayrulla.raxmatov@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqoladan muallifning tarixiy tadqiqotlar sohasidagi axborotlashtirishning tezkor jarayonlari hamda ta’limga innovatsion o‘qitish texnologiyalarini samarali tatbiq etish xususidagi fikr-mulohazalari o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: Mustaqillik, Prezident, tarixiy manba, kompyuter texnologiyalari, InterNET, skaner, “tarixiy informatika”, “elektron pochta”, elektron kutubxona, elektron katalog.

Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma’naviy hayot darajasining yuksalishi, ta’lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni asosida ta’lim sohasini tubdan takomillashtirish, ta’lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, aniq fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish va iqtisodiyotning turli sohalari uchun malakali kadrlar tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida qayd etildi [1].

Darhaqiqat, mamlakatimiz mustaqil taraqqiyot yo‘liga qadam qo‘ygach, yangi davr kishisini kamol toptirishda, unda yangicha dunyoqarashni shakllantirishda tarixga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Zero, tarix qadriyatlarini qayta tiklash va rivojlantirishda, milliy o‘zlikni anglash va yangi jamiyat qurishda ma’rifat quroli, ma’naviy-mafkuraviy mayoq sifatida xizmat qiladi.

Imoratni, u xoh katta bo‘lsin, xoh kichik, poydevorsiz qurib bo‘lmaganidek, tarixni ham manbalarsiz yaratib bo‘lmaydi. Ayniqsa uzoq o‘tmish haqida yozish qiyin. Sababi shuki, orada juda katta vaqt o‘tgan. Bu-birinchiidan. Ikkinchiidan, o‘sha o‘tmish haqida juda kam ma’lumot saqlangan. Arxeolog olimlarimiz uzoq o‘tmishdan qolgan osoru atiqalarni tadqiq etishda keyingi 30 yil ichida ozmi-ko‘pmi muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritdilar. Lekin, baribir O‘zbekiston hududi hali yetarli darajada o‘rganildi, deb ayta olmaymiz [3].

Ulug' ajdodlarimizning hayoti va ijtimoiy faoliyatidan so'zlab berish mumkin bo'lgan juda ko'p moddiy yodgorliklarning juda katta qismi hamon ona zamin qa'rida yastanib yotibdi. Ma'naviy boyliklarimiz, ya'ni ota-bobolarning aql-zakovati bilan bitilgan qo'lyozma asarlar had-hisobsiz bo'lgan. Lekin ularning katta qismini urush-talashlar, 20-30 yillari amalga oshirilgan "madaniy inqilob" va 30-50 yillar ichida bo'lgan qatag'onlar olib ketdi. Sara kitoblarimiz Rossiya va boshqa xorijiy mamlakatlarga tashib ketildi.

Darhaqiqat, milliy mustaqilligimiz qo'lga kiritilishi tufayli boy va ko'hna tariximizni tiklab olish imkoniyatiga ega bo'ldik. Mashhur akademik olimimiz B.Ahmedovning ta'kidlashicha, "...Lekin boy berib qo'yilgan 130 yilning o'rnini to'ldirish oson bo'lmasa kerak. Buning uchun olimlarimiz, qo'yingki, barcha ziyolilar bir bo'lib ko'p mehnat qilishimizga to'g'ri keladi" [3].

Bugungi kunda fan sohasida, ilmiy tadqiqotlar sohasida amalga oshirilayotgan jarayonlarni kompyuter va axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilish mushkul. Kompyuter va u bilan bog'liq texnik imkoniyatlardan hozirda barcha sohalar qatorida ilmiy tadqiqotlar va ta'lim sohalarida ham unumli foydalanilmoqda. Boshqacha qilib aytganda, kompyuter va kompyuter texnologiyalari, axborot texnologiyalari va ulardan foydalanish fan va ta'limning tarkibiy qismlaridan biriga aylanib ulgurgan. Bu borada tarix fani tadqiqotlarida ham bugungi kunda kompyuter imkoniyatlari, InterNET tarmoqlarida joylashtirilgan juda katta hajmdagi axborotlardan to'g'ri va unumli foydalanish katta ahamiyat kasb etmoqda. Shunday bo'lgach, savol tug'ilishi tabiiy: Kompyuter va uning texnologiyalaridan foydalanish tarix fani va tadqiqotlari uchun qanday samaralar berishi mumkin?

Ma'lumki, XX asrning 80-90-yillarida keng avj olgan axborotlashtirish jarayoni tarix faniga ham ta'sir ko'rsatdi. 90-yillarga kelib tarix fani tadqiqotlarida kompyuterlardan asosan ilmiy ishlarni terish va tahrirlash ishlarida foydalanila boshlangan bo'lsa, keyinchalik manbalar bilan ishlashdagi yangicha uslublarda ham qo'llanila boshlandi [4]. Manbalar matnlari va boshqa tasvirlar skanerlar yordamida kompyuter xotirasiga kiritila boshlandi, ayni vaqtda optik disklarning paydo bo'lishi bilan kompyuterlarning juda katta hajmga ega bo'lgan ma'lumotlarni saqlash imkoniyati oshib bordi. Arxivlarda va boshqa hujjatgohlarda tadqiqotchilar noutbukdan foydalangan holda o'zlarining juda katta ma'lumotlarni o'z ichiga olgan shaxsiy ma'lumotlar bazalarini yarata boshladilar. 90-yillarning oxirlariga kelib esa turli mamlakatlarda tarixiy tadqiqotlar sohasida 20 dan ortiq yirik ma'lumotlar banklari faoliyat ko'rsata boshladi.

Tarixiy tadqiqotlar sohasidagi axborotlashtirishning tezkor jarayonlariga "elektron pochta"lar ham moslashib borib, "Inter-NET" tarmoqlari va undagi juda keng hajmli axborotlar bilan tanishish va ulardan foydalanishni yuzaga kelishi bilan axborot almashish borasida ham keng imkoniyatlar yuzaga keldi. Keyingi ilmiy tadqiqot ishlarida endi "InterNET" ham o'ziga xos "axborot manbasi" vazifasini bajara boshladi.

1986 yilda "Tarixchi va kompyuter" nomli xalqaro assotsiatsiya tuzildi va 1992 yilda uning tarkibiga bir qator MDH davlatlari tarixchilari ham kirdi [4].

Shu davrda tarixiy tadqiqotlar va tarix fani tadqiqotlari uslublaridan biri sifatida paydo bo'lgan "tarixiy informatika" yuzaga kelib, kliometriya fanlari

tarkibida shakllana boshladi. Ma'lumotlar bazasi hamda tarixiy manbalar tahlilining kompyuter texnologiyalariga bo'lgan qiziqish kuchayib bordi.

Tarixiy informatika maxsus fan sifatida shakllantirila borilib, uning jihatlariga aniqlik kiritila boshlandi. Unga ko'ra, tarixiy informatika tarix fani ta'limi jarayonlarini axborotlashtirishga yo'naltirilgan ilmiy fan bo'lib, uning tarkibiga hamma turdagi tarixiy manbalarning elektron shakllarini yaratish va shakllantirish borasidagi barcha nazariy va amaliy bilimlar kiritildi. Bunda uning nazariy asosi sifatida nazariy manbashunoslik va axborotning zamonaviy tamoyillari, amaliy asosi sifatida esa kompyuter texnologiyalari va u bilan bog'liq jihatlar ko'rsatildi.

Umuman olganda bu davrda tarixiy informatika o'zining shakllanish bosqichidan qaror topish bosqichiga o'tdi. Keyingi yillarda tarixiy informatikada turli maktablar va turlicha yondashuvlarning differensiyasi va integratsiyasi jarayonlari amalga oshirilmoqda.

Ma'lumki, tarixiy asarlarning katta qismini yozma manbalar tashkil qiladi. Tarixiy yozma manbalarni o'rganishda xolislik, ilmiylik, qiyosiy tahlil, birlamchi manbaning ustuvorligini, kompleks yondashuv kabi prinsiplarga amal qilish talab etiladi [5].

Ta'kidlash lozimki, Vatanimizda istiqloq sharofati bilan Amir Temur hayoti va faoliyatiga oid asl manbalar keng iste'molga kiritildi. Hozirgi davrda olimlar chindan sodir bo'lgan haqiqatlarni bilishga ko'proq ehtiyoj sezadilar. Bu ehtiyojni qondirish uchun barcha tarixiy voqealarni ilmiy jihatdan asoslab berish, qaysi tarixiy fakt qaysi manbaning nechanchi sahifasidan olinganligigacha aniq ko'rsatish, ayni vaqtda ularni ko'pchilik yaxshi tushunadigan jonli so'z yordamida tahlil va talqin etib, qiziqarli shaklda kitobxon diliga yetkazib berish maqsadga muvofiqdir [6].

Shunday paytda tadqiqotchi elektron kutubxonaga ehtiyoj sezadi. Elektron kutubxona "InterNET" ning ajoyib imkoniyatlaridan biridir. Bu kutubxonaning elektron shaklidir. Kutubxona deganda odatda ko'z oldimizga kitoblar turgan uzundan uzoq kitob javonli katta xonalar keladi. Elektron kutubxonada "javonlar" vazifasini jildlar, kitoblar vazifasini InterNET sahifalar bajaradi. Bu kutubxona ma'lumotlari elektron ko'rinishda bo'ladi va kompyuterda joylashadi. Bu kutubxonadan foydalanish juda qulay. Bunda dunyoning ixtiyoriy nuqtasidan elektron kutubxona ma'lumotlaridan foydalanish va zarur ma'lumot nusxasini ko'chirib olish mumkin [4].

Hozirgi kunda elektron resurslardan tashkil topgan elektron kutubxonalar, yig'ma elektron kataloglar yaratish uchun korporativ kataloglashtirish markazini yaratish ustida ishlar olib borilmoqda.

Axborot kutubxona markazlari oldida nafaqat elektron katalog, balki to'la matnli ma'lumot bazalarini yaratish, yig'ma elektron katalog orqali axborot resurslarini birlashtirish kabi vazifalar turibdi.

Zamonaviy texnologiyalar haqida so'z yuritar ekanmiz, yangilanayotgan O'zbekistonda ham bu sohada ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Keyingi yillarda axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini axborotlashtirishni rivojlantirish maqsadida hukumatimiz tomonidan katta imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Shuningdek, mazkur soha yuzasidan bir qator huquqiy hujjatlarning qabul qilinishidan ko'zlangan asosiy maqsadlardan biri axborot-kutubxona faoliyatini

amalga oshirish va rivojlantirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, fuqarolarning axborot-kutubxona muassasalarida saqlanayotgan axborotlardan erkin foydalanishga bo'lgan huquqlari kafolatlarini ta'minlashdan iborat ekanligi bilan mamlakatni modernizatsiya qilish, demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda asosiy omillaridan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi [4].

Tadqiqotchining innovatsion faoliyati-yangiliklarni tahlil qilish va baholash, kelgusidagi faoliyatining aniq maqsadini shakllantirish, uni amalga oshirish va to'g'rilash imkoniyatlaridir. Bunda ijtimoiy-gumanitar fanlar taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari va ularni o'qitishning muhim ahamiyat kasb etishi hamda ustuvor yo'nalishlarini ochib berish, fanlarni o'qitishdagi innovatsiyalar va ilg'or xorijiy tajribalarni qiyosiy tahlil etgan holda ish olib borish talab etiladi.

Shuni qayd etish lozimki, ta'lim tizimida sodibr bo'layotgan shiddatli o'zgarishlar biz o'qituvchi-pedagoglardan talabalar ongida bugungi davr o'zgarishlariga hamohang ravishda ta'limga innovatsion o'qitish texnologiyalarini samarali tatbiq etishni va uning yangicha modellarini shakllantirishni taqozo etmoqda. Bunda turli didaktik vositalardan o'z o'rnida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday ekan, bundan buyon ham tariximizni, tarixiy-ma'naviy merosimizni o'rganishning ahamiyati ortib boraveradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017 yil 24 maydagi "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorida "Boy tarixiy, ilmiy, ma'naviy-intellektual merosimizni saqlash, ilmiy tahlil qilish, uning mazmun-mohiyati va ahamiyati haqida soha mutaxassislariga, tegishli ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan o'quvchi va talabalarga batafsil ma'lumotlar berib borish, buyuk alloma va mutafakkirlarimiz asarlarini dunyo hamjamiyati o'rtasida keng targ'ib etish, zamonaviy ilm-fan, ma'naviyat va amaliyot rivojida undan samarali foydalanish va kelgusi avlodlarga yetkazish" vazifalari qo'yilgan [2].

Xulosa qilib aytganda, aynan tarixiy manba va yodgorliklar orqaligina tarixni yoritish – tarixiy ma'lumotlarni, dalillarni olish, ularni qiyosiy solishtirish va tarixiy umumlashtirish, bo'lib o'tgan tarixiy-madaniy jarayonlar hamda voqea-hodisalarning sabablari va oqibatlarini, mazmun-mohiyatini tahlil qilish, tahlillar asosida esa ilmiy asoslangan xulosalar berish imkoniyatlari kengayadi. Oddiyroq qilib aytganda, muhim manbalar va ularni umumlashtirmasdan turib, haqqoniy tarixni yaratish mumkin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-sonli Farmoni. "Xalq so'zi" gazetasi, 2017 yil, 8 fevral.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydagi "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori. "Ma'rifat" gazetasi, 2017 yil 27 may, 42-son.

3. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. T.: O'qituvchi, 1994.
4. Alimova D.A. Tarix fani metodologiyasi. T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2018.
5. Qodirov P. Amir Temur siymosi. T.: O'zbekiston, 2007.
6. Bozorboevich R. K. The Ethnic Structure of the Population of the Bukhara Emirate //International Journal on Integrated Education. – T. 4. – №. 12. – S. 8-12.
8. Bozorboevich R. K. Political and administrative structure of the emirate of bukhara in the late xix and early xx centuries on the population and ethnotoponyms //Current research journal of history. – 2022. – t. 3. – №. 04. – p. 48-54.

ANIQ FANLARDA LOYIHA USULI ASOSIDA TALABALARDA AXBOROT KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH

**p.f.f.d.(PhD) Karshiyev Abror Amrullayevich,
Xandamov Yigitali Xolmirza o'g'li**
O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali,
abka198529@mail.ru, yxandamov@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada oliy ta'lim tizimida aniq fanlarni o'qitishda loyiha usulidan foydalanib, talabalarda axborot kompetentlikni shakllantirish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: kompetentlik, axborot kompetentlik, axborot-komunikatsiya texnologiyalari, loyiha usuli, loyiha faoliyati.

Axborot oqimlarining keskin oshish va axborot texnologiyalarining jadal sur'atlarda tezkor rivojlanish bilan tavsiflanadigan zamonaviy ta'lim tizimining axborotlashgan jamiyat ehtiyojlariga mos emasligi esa ta'limning fundamentalligini saqlab qolish, shaxs, jamiyat va davlatning istiqbolli ehtiyojlariga mos zamonaviy ta'lim sifatini ta'minlash vazifalarini belgilaydigan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tuzilmasini 2030 yilgacha bo'lgan davrda rivojlantirish Kontseptsiyasining qabul qilinishiga olib keldi. Ushbu kontseptsiyaga ko'ra oliy ta'limning asosiy natijasi bo'lib bitiruvchilarning jamiyat farovonligi uchun shaxsiy ma'suliyatni o'z zimmasiga olishga tayyorligi va qobiliyatligi, asosiy maqsadlaridan biri esa o'quvchilarning mustaqilligini va o'zini o'zi tashkil qilish qobiliyatini rivojlantirish hisoblanadi. Shu bois, talabalar faoliyatining asosiy natijasi bilim, ko'nikma va malakalar tizimi emas, balki tayanch kompetentsiyalar majmuasi bo'lishi kerak. Bu esa o'z navbatida, raqamli va axborot texnologiyalar fani misolida talabalarning kompetentligini rivojlantirish zaruriyati yuzaga keltirdi. Kompetentlik - bu insonning bilish darajasini o'lchaydigan yangi didaktik birlik bo'lib hisoblanadi, chunki bilim, ko'nikma va malakalar ta'lim sifati darajasini to'laligicha aniqlashga imkon bermaydi. В.А.Болотов, В.В.Сериковлар o'z ishlarida kompetentlik deyilganda "o'qimishli, bilimli, ko'nikmali bo'lish usuli, shaxsiy o'zligini namoyon qilishga imkon beradigan tushunchalar jamlanmasidir" [1]. Demak, kompetentlik, o'qish jarayonining bo'lagi bo'la turib, o'qiyotganlarning shaxsiy sifatiga bog'liq